

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KONSTITUTSIYAVIY ISLOHOT

**Marat Sharipov**

Jahon iqtisodiyoti va Diplomatiya Universiteti, 3-kurs  
Xalqaro Munosabatlar, (3-4C-20 guruhi)

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada O'zbekistonda olib borilayotgan keng ko'lamli konstitutsiyaviy islohotlarning asl maqsadi, bugungi kunda mamlakatimizda inson manfaatlarini hurmat qilinishini yuqori darajaga ko'tarish maslasi yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** Konstitutsiya, Yangi O'zbekiston, renessans, islohot, qonunchilik tashabbusi.

### KIRISH

Konstitutsiya har bir davlatda muhim ahamiyat kasb etuvchi asosiy huquqiy hujjat hisoblanadi. Mutaxassis olimlarning fikricha, davalatning konstitutsiyasi shu davlatning yuzi hisoblanadi, chunki qaysi davlatning konstitutsiyasi bo'lmasin unga qarab o'sha davlatning ijtimoiy muhitini anglash mumkin bo'ladi.

Konstitutsiya – asosiy qonun bo'lgani bilan, unga ham insoniyat hayotidagi rivojlanishlar, axborot-texnologiyaning kundan-kunga o'sib borayotganligi, xalqaro maydondagi global o'zgarishlar o'z ta'sirini albatta ko'rsatadi. Demoqchi bo'lganimiz shuki, hamma davlatning konstitutsiyasi ham zamon talablaridan kelib chiqib o'ziga xos o'zgarishlarga ehtiyoj sezadi. Zero, Shavkat Mirziyoev ta'kidlaganidek, "Qonun ustuvorligini ta'minlashda huquqiy madaniyatni yuksaltirish, fuqarolarni qonunga hurmat ruhida tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi" [1]. Yuksak huquqiy madaniyat demokratik jamiyat poydevori hamda huquqiy tizim yetukligining ifodasidir.

### ADABIYOTLAR SHARHI

Yurtimizda, 2017 – 2022 yillarda va "Inson qadrini yuksaltirish" maqsadida, keng ko'lamli islohotlar amalgalash oshirildi. Xususan, shunday sharoitda, davlatimizning asosiy qonuni, Konstitutsiyamizga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish chora tadbirlari, hayotiy zaruriyatlarimizdan biriga aylanib bormoqda. 1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi ham xalqaro talablarga javob beradigan darajada bo'lishiga qaramasdan o'zgarishlarga bo'lgan ehtiyojni chetlab o'ta olmaydi.

Shu sababli 2022 yil 15 iyulda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonunchilik palatasining "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasigao'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy

qonuni loyihasining umumxalq muhokamasi haqida”gi 2304- IV-sonli qarori qabul qilindi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Qonun ustuvorligi, oddiy qilib aytganda, qonunlarga rioya etish demak. Ushbu tamoyil har qanday rivojlangan davlatning poydevorini tashkil etadi. Bobokalonimiz buyuk Sohibqiron Amir Temur “Sultanatim martabasini to‘ra va tuzuklar asosida shunday saqladim-ki, uning ishlariga aralashishga hech bir kimsaning qurbi yetmasdi”, deb o‘z davlatini qat’iy qoidalar, qonunlar orqaliboshqarilganligini ko‘rsatib beradi[2.88.].

Mamlakatimizdagi Konstitutsiyaviy islohotlarning boshlanishiga quyidagi asosiy omillar sabab bo'lmoqda:

Birinchi omil, mazkur islohotlarning boshlanishiga birlamchi asos, ilgaridan amalda bo‘lib kelgan “davlat – jamiyat – inson” tamoyilini “inson – jamiyat – davlat” tamoyiliga o‘zgartirilishi kerakliligi;

Ikkinchi omil, yurtimizdagi so‘nggi yillarda amalga oshirilgan keng ko‘lamli islohotlar natijasida yuzaga kelgan, ijtimoiy munosabatlarga konstitutsiyaviy-huquqiy maqomini berish va uni mustahkamlash. Barchamizga ma'lumki, davlatimiz rahbari boshchiligidida 2017- 2022 yillarda mamlakatimizda, deyarli barcha sohalarni raqamlashtirish bo‘yicha keng ko‘lamli o‘zgarishlar amalga oshirildi. Shuni tan olib aytishimiz kerakki, hozirgi hayotimizni raqamli texnologiyalarsiz tasavvur etish murakkab. Xususan, raqamli davlat xizmatlari, raqamli iqtisodiyot, raqamli turizm, raqamli sud, raqamli tizim kabi tushunchalar mamlakatimiz taraqqiyotininng asosini tashkil etayapti desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Uchinchi omil, xususiy mulk daxlsizligini ta’minalash borasida so‘nggi yillarda joriy etilgan yangi mexanizmlarni Bosh qomusimizda belgilash va uni mustahkamlash zaruriyati. Har bir shaxsing mulkdor bo‘lish xohishi, uning ajralmas huquqlaridan biriligi, ayni haqiqat. Shuningdek, mulkdorlarning huquqlarini himoya qilish, buning uchun kafolatli tizim joriy etish va uni amalga oshirishda, har qanday sharoitda ham mulk daxlsizligini ta’minalash muhim ahamiyatli jihatlardan biridi.

To‘rtinchi omil, ekologiya, atrof tabiiy muhit va tabiatni asrash, uni sofligini bizdan keyingi kelajak avlodga bezavol yetqazish, barchamizning hayotiy majburiyatimizdir. Shu sabali, bu boradagi, amalga oshirilgan ishlarni va ulug‘vor maqsadlarni Konstitutsuyamizda aks ettirish va uning maqomini mustahkamlashimiz zarur desak, yanglishmagan bo‘lamiz.

Beshinchi omil, yoshlarning huquq va manfaatlarini ta’minalash borasidagi davlat tomonidan yaratilib berilgan kafolatlar tizimini bugungi kun talablaridan kelib chiqqan holda takomillashtirish ham Bosh qomusimizga tegishli o‘zgartirish va qo‘sishchalarini kiritish zaruratini yuzaga keltirdi. Yutimizda, xususan, so‘nggi

yillarda, xalqaro standartlarga javob beruvchi ta'lim tizimi joriy etildi, hamda jamiyatning yoshlar qatlamini har jihatdan barkamol avlod sifatida ulg'ayishi uchun keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi. Shuningdek, bu islohotlarga konstitutsiyaviy-huquqiy maqomning berilishi, bu borada amalga oshirilgan o'zgarishlarning uzviy davomiyligi bo'ladi.

### XULOSA VA MUNOZARA

Bugungi amalga oshirilayotgan konstitutsiyaviy islohotlar quyidagi ijobiy jihatlari bilan xalqimiz va davlatimiz taraqqiyoti uchun beqiyos ahamiyatga egadir. birinchidan, mazkur islohotlar, tom ma'noda, "inson qadri uchun" degan ezgu tamoyilning hayotda o'z isbotini topishiga; ikkinchidan, davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda xalqning xohish-irodasini batamom qaror toptirish borasidagi demokratik islohotlarning tadrijiyligini ta'minlashga; uchinchidan, adolatli va odil sudlovni ta'minlash, zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning konsitutsiyaviy-huquqiy maqomi belgilanishiga; to'rtinchidan, Yangi O'zbekis-tonning dunyo hamjamiyatidagi o'rni va nufuzi yanada ortib, jonajon yurtimizning ijobiy imidji yanada yuksalishiga xizmat qilishi lozim.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi./O'zbekiston Respublikasining saylangan Prezidenti Shavkat Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagima'ruzasasi. 07.12.2016.
2. Temur tuzuklari./Tahrir hay'ati: B.Abduhalimov va boshq., forscha matndan A.So'g'oniy va H.Karomatov tarj. – Toshkent. O'zbekiston, 2018.
3. Ahrorqulov, A. (2021). Nodavlat notijorat tashkilotlarining huquqiy holati. 21-asr fani: jamiyat va raqamlashtirish, 1(02), 62-63.
4. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)